

2019

2018-2019-o`quv yilida  
o`rta ta`lim maktablarining

**8 sinf**

*O`quvchilari uchun*

**Huquq**

*Fanidan mustaqil shug`ullanishlari uchun  
Imtixon javoblari*

**HUQUQ**

Telegram kanal: <https://t.me/imtxon2019>  
Admin : @sayyodfazliddinov

## **1-bilet**

**1. Huquq deganda nimani tushunasiz?** Huquqiy munosabat – uning ishtirokchilari urtasidagi huquqiy (yuridik) aloqalar bulib, ularning o‘zaro huquq va majburiyatlarida namoyon bo‘ladi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloq ham har xil huquqlarga masalan, tibbiy yordam olish, turar-joyga, o‘z ismi-familiyasiga ega bo‘lish huquqlariga ega. Akli zaif va ruhiy kasallar ham huquqiy layoqatga ega. Ular ham yashash, davolanish, nafaqa olish, mulkdor bo‘lish huquqiga egadirlar. Ayrim vaqtda xali tugilmagan bola ham huquqiy layoqatga ega. U merosxo‘r bula oladi.

Huquqiy munosabat ishtirokchilarining harakati nimaga karatilgan bo‘lsa, ushbu narsa huquqiy munosabatlarning ob‘ekti xisoblanadi.

Huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari, ya‘ni huquq va majburiyat egalari huquqiy munosabatlarning sub‘ektlari xisoblanadilar.

Huquq layoqati asosan kishining tugilishi bilan vujudga keladi va vafot etishi bilan tamom bo‘ladi.

Muomila layoqati o‘z harakatlari asosida huquqlarni amalga oshirish va yuridik majburiyatlarni bajara olish imkoniyatidir.

Muomila layoqati yosh va ruhiy salomatlik bilan bog‘liq. O‘zbekiston qonunlariga binoan to‘liq muomila layoqati fuqaro 18 yoshga tulgandan sung boshlanadi lekin ushbu qoidadan istisnolar ham mavjud. Masalan, shaxs jinoiy javobgarlikka 16 yoshdan ayrim jinoyatlar uchun 14 yoshdan tortilishi mumkin. Boshqa bir misol: «Oila kodeksi» ayrim xollarda 18 yoshga tulmasdan turib nikoxdan utishga ruxsat beriladi. Bunday fuqaro nikoxdan utgan vaqtdan boshlab to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘ladi.

Huquq manbai davlat idorasini muayyan huquqiy normativ hujjatlar, qonun aktlarida ifodalash, bayon kilish usuli va shaklidir. Huquqshunoslik fanida huquq manbaalarining quyidagi 4 shakli e‘tirof kilingan:

Huquqiy odat – bu jamiyat a‘zolari tomonidan o‘zok vaqt kullanilishi, doimiy takrorlanishi natijasida jamiyat tomonidan qabul kilingan xulq-atvor normasiga aylangan va keyinchalik davlat tomonidan tasdiklangan qoida. Huquqiy odat kadimgi davrlarda asosiy huquq manbai xisoblangan. hozirgi paytda ham ayrim davlatlarda masalan, Buyuk Britaniyada mavjud.

Yuridik pretsedent sudining umum majburiy ahamiyatga ega bo‘lgan aniq bir ish bo‘yicha karoridir. Yuridik pretsedentning o‘ziga xos jihati shundaki u qabul kilingach, usha masala bo‘yicha umummajburiy qoidaga aylanadi. Huquqiy pretsedent ayrim mamlakatlarda umummajburiy qoidalarga aylanadi. Huquqiy pretsedent ayrim mamlakatlarda, masalan, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada va Avstraliyada huquq manbai xisoblanadi. Lekin O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimida kullanilmaydi.

Normativ-huquqiy hujjat – hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan huquq manbaidir. Normativ-huquqiy akt vakolatli davlat organlarining belgilangan tartibda qabul kilgan yuridik huquqiy hujjati bulib, umummajburiy xulq-atvor qoidalarini o‘z ichiga oladi.

**2. Talonchilik** Bosqinchilik, ya‘ni o‘zganing mol-mulkini talon-taroj qilish maqsadida hujum qilib hayot yoki sozliq uchun xayfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatib yohud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib sodir etilgan bo‘lsa, 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (JK, 164-modda).

## **2-bilet**

**1. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?** Huquqshunoslik ilmida «davlat» va «jamiyat» tushunchalari mavjud. Ammo davlat bilan jamiyat tushunchalari bir xil emas. Davlat – jamiyatning shaklangan asosiy instituti. Jamiyat tarakkiyotining yetuklashgan muayyan davrida paydo bo‘lgan. Boshqacha kilib aytganda, «jamiyat – davlatning onasi». Davlat esa jamiyat «farzandi» uning maxsuli. Shunday ekan, jamiyat qandaybo‘lsa davlat ham shunday bo‘ladi va aksincha. Jamiyat o‘z

rivojida qandayboskichlardan utsa, davlat ham shunga mutanosib tarzda o'zgarib, takomillashib boraveradi. Bu – qonuniyat.

Davlatlarning tashkil topishi bu – insoniyatning ijobiy jamoa tizimida sivilizatsiya tomon burilishi edi. Dunyoda birinchi sivilizatsiyalashgan davlatlar Kadimgi Sharkda miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar davriga tugri keladi. Markaziy Osiyo hududida miloddan avvalgi ming yillikning boshlarida ilk davlat uyushmalari paydo bula boshlagan.

Jamiyat dastlab ijtimoiy hokimiyat ya'ni hamma odamlarning hokimiyati tomonidan boshqarilgan. Odamlar turli kabilalarga birlashib, usha kabilada yuzaga kelgan muhim masalalarni birgalikda xal kilgan. Kabila ishlarini boshqarishda hamma ishtirok etgan. Bu demokratiya ya'ni xalk hokimiyatining ilk sodda kurinishi - ibtidoiy demokratiya edi.

Ishlab chikarishning usishi tarakkiyot natijasida asta sekin jaimyatda siyosiy munosabatlar paydo buldi.

Jamoa hokimiyati (ibtidoiy demokratiya) urniga aloxida odamlar hokimiyati paydo buldi. Jamiyat boylar va kambagallar, keyinrok boshqaruvchilar va boshqariluvchilarga bulindi.

Davlatning ibtidoiy urugchilik jamiyatdan ajralib turadigan belgilari quyidagilar;


1. Davlat paydo bo'lgan jamiyatda fuqarolar ma'lum bir xududga birlashadilar.
2. Davlat o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun murakkab tizimdan tashkil topgan boshqaruv apparati (kurolli kuchlar, militsiya, sud, proko'ratura, bojxona va boshqalar)ga ega bo'ladi va ana shu boshqaruv tizimi yordamida o'zining barcha fuqarolari uchun majburiy bo'lgan davlat hokimiyatini amalga oshiradi.
3. Davlat hokimiyatini tulakonli amlga oshirish uchun qonunlar va turli normativ hujjatlar qabul qilinadi. Ya'ni, davlat mavjud bo'lgan joyda huquq ham mavjud bo'ladi.
4. O'z faoliyatini yuritish uchun zaruriy harajatlar urnini koplash uchun moliyaviy manbaalarga ega bo'ladi. Soliklar va boshqa tulovlar joriy qiladi va ularni yigadi ya'ni o'z byudjetiga ega bo'ladi.
5. Davlat o'z faoliyatini tulakonli tarzda amalga oshirishi uchun o'z suverentetiga (mustakilligiga) ega bo'lishi lozim.

Davlat majbur kilish kuchiga, ya'ni hokimiyatga ega bo'lgan, o'z fuqarolari shuningdek, xududda istikomat qiluvchi barcha insonlarning manfaatlarini ximoya qiladigan, boshqa davlatlar bilan siyosiy iqtisodiy, madaniy aloqalarni amalga oshiradigan mustakil siyosiy tashkilotdir.

**2. Qasddan badanga tan jarohat yetkazish.** Sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish usha xarakteratlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining 25 barovarigacha miqdorda yoki 1 yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoki 3 oygacha qamoq bilan jazolanadi. (JK, 109-modda).

#### 40-bilet

### 1. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimining bo'linish prinsiplari



### 2. Huquq normasining tarkibiy tuzilishi

**Huquq normasi** - bu huquq tizimining eng asosiy, dastlabki elementi. Huquqiy normalar

jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilishi bilan belgilanadigan, xalq irodasini ifodalovchi davlat tomonidan o'rnatilgan, bajarilishi jamiyatning barcha a'zolari uchun umummajburiy bo'lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalardir.

Davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidasi **huquq normasi** deyiladi.

Huquq normasining asosiy vazifasi - ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Huquq alohida normalar, xulq-atvor qoidalaridan tashkil topgan.

Huquqiy norma tuzilishigako'ra bir-biri bilan bog'liq bo'lgan quyidagi uch tarkibiy qism (element)dan: gipoteza, dispozitsiya, sanksiyalardan tashkil topishi mumkin.

**Gipotezada** norma harakatga kelishi uchun zarur bo'lgan shart-sharo- itlar bay on etiladi.

**Dispozitsiyada** xulq-atvor qoidalarining o'zi ifodalanib, huquq subyekt- larining huquq va majburiyatlari belgilab beriladi.

**Sanksiyada** huquq normalari bajarilmagani uchun davlat tomonidan qo'llaniladigan majburlov chorasi bay on etiladi.

*Imtixon javoblarini to'liq va 100 % to'g'ri javoblarini olish uchun telegram orqali*

**<https://t.me/imtxon2019>**

*kanaliga obuna bo'ling va kanal admini*

**@sayyodfazliddinov** ga yoki +99899 815 54 25

*raqamiga murojaat qiling!*

**FAYL NARXI:5000 SOM**

***Shoshiling vaqt o'tmoqda va davlat imtixonlari yaqinlashmoqda ushbu qo'llanma orqali imtixonlarni a'lo natijaga topshiring qo'llanmada 40 ta biletga to'liq javoblar mavjud***